FARG'ONA VILOYATI RISHTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2021 - yil 17 - dekabr 203-11-158-Q/21 Rishton tumani hokimligi

Tumanidagi aholi punktlari ko`chalari va xo`jaliklararo qishloq avtomobil yo`llaridan foydalanish tartibi to`g`risidagi nizomni tasdiqlash haqida

"Avtomobil yo`llari to`g`risida"gi Qonunining 20-moddasi hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman yo`llardan foydalanish unitar korxonasi va tuman obodonlashtirish boshqarmasi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan tumanidagi aholi punktlari ko`chalari va xo`jaliklararo qishloq avtomobil yo`llaridan foydalanish tartibi to`g`risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimining o`rinbosari N.Oripov, tuman yo`llardan foydalanish unitar korxonasi O`.Akbarov, tuman obodonlashtirish boshqarmasi S.Xaydarov fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda tuman xududidagi yo`llarni saqlash, ta`mirlash xamda obodonlashtirish ishlarini tashkil etib borsinlar.

3. Mazkur qaror "Rishton haqiqati" gazetasida yoritish tavsiya etilsin va hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e`lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni tuman hokimining o`rinbosari N.Oripov, tuman obodonlashtirish boshqarmasi S.Xaydarov zimmalariga yuklansin.

Tuman hokimi **С.Солиев**